

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 184 (1783), 2026-yil 5-sentabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



AZIM POYTAXTNING YANA BIR ZAMONAVIY VA NOYOB MADANIY MASKANI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi yangi Zamonaviy san’at markaziga tashrif buyurib, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.



Madaniy sohaga yo'naltirilayotgan sarmoya va e'tibor jamiyatning ma'naviy yuksalishiga hamda kelajak avlod kamolotiga xizmat qilishi tarixiy taraqqiyotning rad etib bo'lmaz haqiqatidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahridagi Zamonaviy san'at markaziga tashrifi shu ma'noda ham chuqur mazmun kasb etadi.

Darhaqiqat, bugun milliy merosni asrash bilan birga jahon andozalariga

mos zamonaviy madaniy infratuzilmani shakllantirish bo'yicha tizimli islohotlar kechmoqda. Pirovardida jahon san'ati O'zbekistonga intilmoqda. O'z navbatida, o'zbek san'atining dunyoga chiqish imkoniyati kengayyapti. O'zaro hamohanglik kasb etgan hamkorlik amalda samarasini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, jahon ahli, san'at va madaniyat vakillari hozirgi O'zbekistonni faqat buyuk o'tmish merosini

asrab kelayotgan mamlakat emas, balki shu bebaho madaniy merosga tayangan holda kelajakning yangi madaniy qiyofasini izchil shakllantirayotgan davlat sifatida ham anglab yetmoqda, tushunmoqda. Bu, albatta, tarixiy merosni asrash va ommalashtirish borasidagi ishlar tobora keng us olib, jadallashib, yangi ijodiy yo'nalishlar, zamonaviy madaniyat hamda san'at rivoji uchun katta imkoniyatlar eshigi ochilayotganidan dalolat.

O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasining yetakchi loyihalaridan biri hisoblangan Zamonaviy san'at markazi ana shu yangi bosqichning yorqin ramzlaridan biriga aylanishi shubhasiz.

Zamonaviy san'at markazi, yuqorida qayd etganimizdek, madaniyat va san'atni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida qaratilayotgan yuksak e'tiborning yorqin ifodasi. Qolaversa, u 1912 yilda qurilgan tarixiy binoda joylashgan. Bino dastlab tramvay deposi, keyinchalik elektr stansiyasi sifatida faoliyat yuritgan.

Binoda renovatsiya ishlari Fransiyaning "Studio KO" arxitektura kompaniyasi tomonidan tarixiy ko'rinish saqlangan holda amalga oshirildi. Shu ma'noda, unga shunchaki yangi madaniy obyekt sifatida qarash yetarli emas. Uning tashkil etilishi zamonaviy madaniy infratuzilmani rivojlantirish va mamlakatimizning xalqaro maydondagi madaniy nufuzini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaz zamonaviy san'at va professional hamjamiyatni rivojlantirish, shuningdek, madaniy hamkorlikning yangi shakllarini yo'lga qo'yish uchun muhim platforma, O'zbekistonning boy tarixiy merosi hamda zamonaviy jahon san'ati o'rtasidagi o'ziga xos muloqot maydonini ifodalaydi.

Prezidentimiz ko'rgazma va ta'lim maydonlari, jamoat hududlarini ko'zdan kechirdi.

Markazda ko'rgazmalar, leksiyalar, ochiq suhbat va muhokamalar, film namoyishlari, konsertlar, performanslar, ijodiy ustaxonalar va art-rezidensiya dasturlari tashkil etiladi.

► Davomi 2-betda

TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH VA KASBIY RIVOJLANTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tibbiyot va farmatsevtika sohasida kadrlar tayyorlash, ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish, birlamchi tibbiy yordam sifatini oshirish, zamonaviy klinikalar va diagnostika imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar tibbiyot va farmatsevtika sohasi uchun kadrlar tayyorlashni ham zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Shu bois, tibbiy ta'limni nazariy bilim berishdan kompetensiya va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, ta'lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, mutaxassisning bilim va malakasini xolis baholash hamda uning butun mehnat faoliyati davomida kasbiy rivojlanib

borishini ta'minlaydigan yaxlit tizim yaratish maqsad qilingan.

Taqdimotda, avvalo, tibbiyot va farmatsevtika sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish choralari ko'rib chiqildi. Takliflar Kembrij, Pensilvaniya va Garvard universitetlari tavsiyalari asosida, xalqaro va mahalliy mutaxassislar ishtirokida ishlab chiqilgan.

Endilikda tibbiyot oliyog'ohlarga qabul parametrlari hududlar va tibbiyot muassasalarining real ehtiyoji, kadrlar yetishmovchiligi asosida shakllantiriladi. Davlat buyurtmasi yo'nalishlar kesimida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

2027/2028-o'quv yilidan "Davolash ishi" yo'nalishi o'rni 6 yillik "Umumiy tibbiyot" bakalavriat dasturini joriy etish taklif qilinmoqda. Besh yillik ta'limdan keyin talabalar bir yil to'liq amaliy tayyorgarlikdan o'tadi. Dastumi muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar oilaviy shifokor sifatida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oilaviy tibbiyot bo'yicha kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi. Rezidentlarning oilaviy poliklinikalarda bir vaqtning o'zida o'qishi va amaliyot o'tashi yo'lga qo'yiladi. Tor soha mutaxassislarini tayyorlash esa bosqichma-bosqich rezidenturaga o'tkazilib, magistratura asosan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga yo'naltiriladi.

O'rta tibbiyot kadrlarini tayyorlashda ham yangicha yondashuvlar joriy etiladi. Oliy ma'lumotli hamshiralarning tashxis, davolash va profilaktika jarayonlarida shifokorga yaqin ko'makchi sifatidagi o'rni oshiriladi.

Farmatsevtika ta'limi ishlab chiqarish bilan yanada yaqin bog'lanadi. Korxonalar ehtiyoji asosida dual ta'lim kengaytirilib, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, talabalarni dori vositalarini ishlab chiqishdan tortib, sifat nazorati va standartlashtirishgacha bo'lgan jarayonlarga jalb qilish belgilanmoqda.

Taqdimotning keyingi qismi tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini joriy etishga bag'ishlandi.

► Davomi 2-betda

PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING XII YOSH PARLAMENT A'ZOLARI BUTUNJAHON KONFERENSIYASI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli parlament a'zolari va konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Bugun siyosat maydoniga o'z so'zi, o'ktam ovozi bilan dadil kirib kelayotgan siz — yosh parlamentariylarni ushbu nufuzli tadbir munosabati bilan samimiy qutlash va ezgu tilaklarimni yo'llashdan bag'oyat mamnunman.

Ming yillardan buyon tamaddunlar, xalqlar va g'oyalarni birlashtirayotgan ko'prik — ko'hna va navqiron Samarqand shahriga xush kelibsiz!

Yuqori maqomdagi anjumaning mamlakatimizda ilk bor o'tkazilayotganini Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas demokratik islohotlarga xalqaro hamjamiyat bergan yuksak baho deb qabul qilamiz.

Bugungi muloqot o'tgan yili Toshkentda tashkil etilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi singari jonli mulohazalar, yangi g'oya va ilg'or tashabbuslar ilgari suriladigan anjumanga aylanadi deb ishonaman.

Aziz mehmonlar!

Samarqand xalqaro anjumani dunyoda global ziddiyatlar chuqurlashib, beqarorlik va urush o'choqlari ko'payayotgan murakkab bir pallada o'tmoqda.

Iqlim o'zgarishi, iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy beqarorlik va ma'naviy inqiroz butun insoniyat taraqqiyotiga g'ov bo'layotgani sir emas.

Shu jihatdan mazkur konferensiya kun tartibiga **"Notinch davrlarda barcha uchun inson huquqlari, adolat va qadr-qimmatni tiklash"** mavzusi kiritilgani dolzarb ahamiyatga ega.

Taassufki, sayyoramiz bo'ylab 500 milliondan ziyod bolalar va yoshlar qurolli mojarolar hududida yashamoqda, har besh nafar yoshdan biri, qizlarning har uch nafardan ikkisi ta'lim olish imkonidan mahrum qolmoqda.

Shunday qiyin sharoitda dunyo yoshlarining eng faol, intiluvchan qatlami sifatida maydonga chiqayotganingiz tahsinga sazovor.

Qadrl! do'stlar!

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida yosh avlodga g'amxo'rlik qilish, ularning bilim va salohiyatini to'liq ro'yog'ba chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan.

39 millionlik aholining qariyb 56 foizini yoshlar tashkil etayotgani uzoq muddatli yondashuv, keng qamrovli yechimlarni hayotiy zaruratga aylantirmoqda.

So'nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarimiz natijasida yoshlarimizning barkamol o'sishi, global raqobat muhitida munosib o'rin egallashi uchun ulkan imkoniyatlar yaratildi.

Yurtimizda yoshlar bilan ishlash va ularni qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi —

manzilli va vertikal tizimi yo'lga qo'yilganini alohida ta'kidlash o'rinnidir.

Dunyodagi yuqori 100 talikka kiradigan yetakchi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'g'il-qizlarimiz soni 3,5 ming nafardan oshgani, ilmiy darajaga ega yosh olimlarimiz ulushi ikki baravar ortgani bizni mamnun etadi.

Yoshlarning tadbirkorlar safidagi ulushi 35 foizga yetgani ham ular iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganidan dalolat beradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati huzuridagi Yoshlar parlamentlari bo'lajak xalq vakillari uchun tajriba maktabiga aylandi.

2024-yilgi saylovda 200 ga yaqin yoshlar vakillik organlari a'zosi etib saylangani ham siyosiy hayotimizdagi yangilanishlar samarasidir.

Bu kabi yutuqlar xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib e'tirof etilmoqda. Jumladan, **"O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar — 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan dunyoning 10 ta yetakchi davlati qatoridan joy oldi."**

Shuningdek, **Global yoshlar taraqqiyoti indeksida eng tez rivojlanayotgan mamlakat** deb topildi.

Hurmatli xonimlar va janoblar! Parlamentlararo Ittifoq doirasida yoshlarning davlat hamda jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengaytirishga qaratilgan **Yoshlar va kelajak avlodlar to'g'risidagi Samarqand rezolyutsiyasi** qabul qilinishini olqishlaymiz.

Shu bilan birga, yoshlar salohiyatini ro'yog'ba chiqarishga doir **ilg'or tajribamiz bilan o'rtoqlashish uchun maxsus platforma taqdim etishga** tayyorligimizni bildiramiz.

Fursatdan foydalanib, sizlarni **kelgusi yil O'zbekistonda o'tkaziladigan "Avlodlar muloqoti" xalqaro yoshlar kongressiga** taklif etaman.

Qadrl! navqiron yetakchilar! Sizlarning siymongizda Yangi O'zbekistonning xayrixoh do'stlari, birdamlik va hamkorlik elchilarini ko'ramiz desak, ayni haqiqatni aytdan bo'lamiz.

Ishonchim komil, anjuman doirasidagi muloqot va munozaralar ochiq, konstruktiv ruhda o'tadi, Samarqandda tasdiqlangan hujjatlar global tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sizlarni yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga mustahkam salomatlik, tuganmas g'ayrat-shijoat va mas'uliyatli faoliyatingizda yangi zafarlar tilayman!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SAMARQAND GLOBAL KONFERENSIYASI YOSHLARNI TINCHLIK VA ADOLAT TAMOVILLARINI MUSTAHKAMLASH YO'LIDA BIRLASHTIRDI

Samarqanddagi "Buyuk ipak yo'li" (Silk Road Samarkand) xalqaro turizm markazida joylashgan Kongress markazida Parlamentlararo Ittifoqning XII Yosh parlament a'zolari butunjahon konferensiyasi o'z ishini boshladi.



4-6 September 2026, Samarkand, Uzbekistan
Twelfth IPU Global Conference of Young Parliamentarians
Reclaiming human rights, justice and dignity for all in turbulent times



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur nufuzli anjuman O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda Parlamentlararo Ittifoq hamkorligida o'tkazilmoqda.

6-sentabrga qadar davom etuvchi mazkur nufuzli anjuman "Murakkab davrda inson huquqlari, adolat va

inson qadr-qimmatini tiklash yo'lida" mavzusiga bag'ishlandi. Unda dunyoning 60 ga yaqin mamlakatidan yosh parlament a'zolari, 11 xalqaro tashkilot vakillaridan iborat 250 ga yaqin ishtirokchi qatnashmoqda.

► Davomi 2-betda



Mustaqillik taqvimidagi oddiy sana emas, balki xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, o'z kelajagini o'zi qurish jasorati va eng muhimi, **"Biz qanday O'zbekistonni barpo etmoqchimiz?"**, degan savolga berilgan tarixiy javobdir. Bosib o'tilgan o'ttiz besh yillik yo'lga nazar tashlasak, kechagi orzu bilan bugungi voqelik o'rtasida ulkan masofa borligini ko'ramiz. Bu masofa oddiy yillar bilan emas, o'zgargan tafakkur, yangilangan davlatchilik va inson hayotida namoyon bo'layotgan islohotlar bilan o'lchanadi.

O'ZBEKISTON — 35 YIL: YANGILANISH VA TARAQQIYOTNING YANGI DAVRI



Bugun "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha xaritada yangi nom yoki siyosiy shior emas, balki u mustaqillikning yangi bosqichdagi mazmuni, xalqning ertangi kunga ishonchi va davlat taraqqiyotining yangi falsafasidir. Prezidentimiz boshlagan keng ko'lamli islohotlar aynan shu tarixiy imkoniyatni real o'zgarishlarga aylantirishga qaratildi: davlat xalqqa yaqinlashdi, inson qadri islohotlarning bosh mezoniga aylandi, jamiyat va iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar ochildi. Endi oldimizda turgan eng katta vazifa — erishilgan natijalar bilan kifoyalanmay, mustaqillikning 35 yillik tajribasini yangi O'zbekistonning yanada buyuk taraqqiyotiga aylantirishdir.

► Davomi 3-betda

Vatanparvarlik va yurt himoyasi. Ushbu soʻzlar maʼno va mazmun jihatidan bir-biriga uygʻun. Ammo bir oz farqli tomonlari ham bor. Keling, dastlab vatanparvarlik tushunchasi haqida fikr yuritishga harakat qilamiz. Nazarimda, u insonga ona sutidan oʻtadi. Mazkur tugʻma tuygʻu bosqichma-bosqich — ota-ona, oila tarbiyasi, maktab va oʻquv dargohlari taʼlimi, keyinchalik shaxsiy masʼuliyat orqali shakllanadi. Kishida bu fazilat oʻz davlati ramzlari, elu yurti milliy qadriyatlarini va madaniyatiga hurmatida ham yaqqol namoyon boʻladi.



Xolmurod SALIMOV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Vatanini sevgan odam mamlakati taraqqiyotiga oʻz isteʼdodi, bilimi va mehnati, bor kuch-gʻayrati bilan hissa qoʻshishga astoydil intiladi. Erishilayotgan har bir yutuqdan quvonadi, faxrlanadi, uning kelajagiga befarq boʻlmaydi. “Vatan men uchun nima beradi?”, deb emas, “Men Vatanim uchun nima qila olaman?”, degan yondashuv asosida yashaydi. Shu maʼnoda, bu tushuncha faqat his-tuygʻu emas, balki amaliy masʼuliyat va faol fuqarolik pozitsiyasi hamdir.

Har yili mamlakatimiz boʻylab “Vatanparvarlik oyligi” oʻtkazilishi, shuningdek, “Vatan manzumi” singari madaniy-maʼrifiy tadbirlar tashkil etilayotgani yoshlarimizni yurtga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim omil boʻlmoqda. Oʻz vazifasiga masʼuliyat bilan yondashish, halol mehnat qilish, atrof-muhitni asrash va jamiyatga naf keltirish borasidagi ishlar ham vatanparvarlik koʻrinishlaridandir. Ajdodlarimizdan qolgan merosni asrab-avaylashga hissa qoʻshish, mamlakatimiz tarixini oʻrganish singari bajariladigan yumushlar bu tuygʻuni mustahkamlaydi. Menimcha, har kuni ertalab ishga kelishimiz, kechki payt ishdan uyga qaytishimiz vatanparvarlik emas, bu — masʼuliyatimiz. Vatanparvar inson ishga oʻzini bagʻishlaydi, faoliyati rivoji hamda yurt taraqqiyotiga hissa qoʻshish uchun vaqtini ayamaydi. Vatan shaʼni,

Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan bu boradagi keng qamrovli ishlar yoshlarni, jumladan, Qurolli Kuchlar tizimi xizmatchilarini kitob mutolaasi, ilimga chorlashda yuksak samaralar berishi shubhasiz.

or-nomusini jon-jahdi bilan himoya qiladi. Oʻz manfaatini jamoasi va davlat foydasini ustun qoʻyadi. Qalbida yurtga daxldorlik hissini tuyadi. Har bir insonda bu hissiyotning mustahkamlanishiga erishish esa oldimizda turgan dolzarb vazifalardan. Chinakam yurtga muhabbat oddiy harakatlar orqali ham koʻzga tashlanadi. Misol uchun, vazifa-majburiyati boʻlmasa-da, yoʻlak va yoʻl boʻylariga, hududlarga tashlab ketilgan turli yaroqsiz idishlar hamda chiqindilarni terib



nafaqat yuksak harbiy tayyorgarlikka ega askar, balki keng dunyoqarashli, zamonaviy bilim va kasb-hunar sohibi boʻlmoqda. Bir soʻz bilan aytganda, muddatli harbiy xizmatni oʻtash yoshlar uchun muvaffaqiyat yoʻliga aylanmoqda. Bu esa yurtimizda inson qadriini ulugʻlash, navqiron avlodning orzu-intilishlarini roʻyobga chiqarish va kelajagiga sarmoya kiritish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylanganining yaqqol namunasidir.

Kitobxon harbiylar safi kengaymoqda

Bugun harbiy yoʻnalishda ham kitob oʻqimasdan, ilm olmasdan, sunʼiy aql imkoniyatlaridan foydalanmay turib muvaffa-



Kamolot pillapoyasi

VATANPARVARLIK VA YURT HIMOYASI

olayotgan volontyorlar mehnati, yoki xorijlik ayrim kimsalar millatimiz va yurtimizga tosh otganida gʻazab hissga berilish ham vatanparvarlikning belgisi hisoblanadi, bizningcha.

Vatanparvarlik faqat soʻzda boʻlmasligi kerak. Har birimiz uni soʻz va amal birligida kundalik hayotimizda namoyon etishimiz lozim. Zero, “Vatanni sevmqoʻymondandur!” deya bejiz aytilmagan.

Ijtimoiy tarmoqlarda oʻz hayotini xavfga qoʻyib boʻlsa-da, turli halokatli vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolgan sohalarda vakillari hamda oddiy odamlarni ragʻbatlantirish jarayonlari haqidagi matnli, foto va videomateriallarga tez-tez koʻzimiz tushadi. Bu — yaxshi. Ammo tegishli xizmatlar vakillari va fuqarolar oʻz insoniylik vazifasi hamda burchini sidqidildan bajarish, koʻcha-koʻyda — joylarda shoshilinch yordamga muhtoj aholiga koʻmak berish chogʻida turli darajada tan jarohati olishi yoki vafot etish holatlari uchrashi esa koʻngilni ogʻritadi.

Joriy yil 15-avgust kuni internet nashrlarida poytaxtimizning Uchtepa tumani “Quyi Darxon” MFY hududidagi uylardan birida yongʻin sodir boʻlgani, unda FVV qutqaruvchisi, 33 yoshli kapitan Boburmizro Pardayev xizmat vazifasini bajarish chogʻida halok boʻlgani haqida xabar berildi. Maʼlum qilinishicha, vatanparvar yigit xonadon egalari hayotini saqlab qolishga katta hissa qoʻshgan. Ammo kutilmaganda tom bosib qolib, vafot etgan.

Qanday odam elu yurt uchun oʻz hayotini xavf ostiga qoʻyishgacha boradi?! Bizningcha, bu sharaflı ish qonida vatanparvarlik boʻlgan, odamgarchiligi va yurtga muhabbati yuqori hamda masʼuliyatli insonlarning qoʻlidən keladi. Maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy taʼkidlaganidek, “Inson qalbidə millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuygʻular qanchalik chuqur joy olgan boʻlsa, mahdudlik oʻrniga milliy gʻoyalər vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega



harbiylashgan tuzilmalar vakillari keladi. Aslida, har birimiz Vatan himoyachisimiz. Zero, davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, barchamiz eng avvalo Vatan himoyachisi, tinchlik posboni boʻlishimiz zarur!

Qayerda boʻlmaylik, tugʻilib oʻsgan qish-

yashashdan huzur-halovat, undan uzoqda boʻlganda sogʻinch, unga hujum qilinganida mudofaa etish va u kamsitilganda gʻazab hislarini paydo qiladi”, deya bejiz aytmagan shayx Muhammad Gʻazzoliy.

Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan vatanparvarlik boʻyicha targʻibot-tashviqotni kuchaytirish maqsadida muayyan ishlar qilinmoqda. Toshkent viloyatidagi harbiy qismlardan birida oʻtkazilgan tadbirda Qurolli Kuchlarimiz tizimida roʻy berayotgan yangilanishlar, yangi Oʻzbekistonning yangi armiyasi, islohotlar, jumladan, harbiylarimiz, shuningdek, hududiy mudofaa ishlari boshqarmasi va boʻlimlarining harbiy boʻlmagan xizmatchilari oylik maoshlari oshirilishi, muddatli harbiy xizmat oʻtayotgan askarlar uchun yaratilayotgan qulayligi imkoniyatlar haqida soʻz bordi.

Shularni tinglar ekanman, 1990-yillar oxiri — muddatli va shartnoma asosida harbiy xizmatni oʻtagan damlarim yodga tushdi. Vatanga qasamyod qilganimga guvoh boʻlish uchun qariyb besh yuz kilometrdan Toshkentga kelgan ota-onam ayni jarayonni koʻra olmagandi oʻshanda. Ichki tartibga binoan ular qasamyod qabul qilinadigan maydonga kiritilmagandi. Ammo tadbir oʻtgach, bir muddat uchrashish nasib qilgan. Bugun esa vaziyat tamoman boshqacha. Yozishga hojat yoʻq, armiyadagi qulay, havas qilsa arzigulik shart-sharoitlarni hamma oʻz koʻzi bilan koʻrib turibdi.

Yigʻilish doirasida harbiy qismda askarlar uchun yaratilgan qulayliklar bilan tanishish, ular bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega boʻldik.

— Bugun harbiy xizmat nafaqat muqaddas burch, balki bilim olish, kasb-hunar egallash, jamiyatda mustahkam oʻrin topishda hayot maktabiga aylanmoqda, — deydi oddiy askar Ulugʻbek Mansurov. — 2026-2027-oʻquv yilidan boshlab muddatli harbiy xizmatchilar uchun yangi imtiyoz va imkoniyatlar joriy etilmoqda. Endilikda askarlar harbiy

xizmatni oʻtash bilan bir vaqtda oliy taʼlim muassasalariga hujjat topshirib, onlayn tahsil olish imkoniga ega boʻladi. Harbiy qismlarda institut va universitetlar bilan hamkorlikda maxsus tayyorlov kurslari tashkil etilib, biz kabi yoshlarning bilim olishi va kelajakda munosib mutaxassis boʻlib yetishishi uchun zamonaviy taʼlim muhiti yaratilmoqda. Yuzlab askarlar qatorida men ham bu imkoniyatlardan samarali foydalanib, elu yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshishga astoydil harakat qilaman.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti fakultet boshligʻi, podpolkovnik Aʼlomirza Boboyev ham askarlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida quyidagilarni soʻzlab berdi:

— Joriy yildan oliy oʻquv yurtlariga qabul qilingan muddatli harbiy xizmatchilar harbiy fakultet talabalariga tenglashtirilib, oʻqishni muvaffaqiyatli yakunlaganidan soʻng zaxiradagi leytenant harbiy unvonini olish huquqiga ega boʻladi. Bu esa harbiy xizmat bilan oliy taʼlim oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni yanada mustahkamlab, yoshlarning kelgusi faoliyati uchun istiqbolli yangi eshiklarni ochadi. Ayniqsa, “Bitta askar — bitta kasb” tamoyili asosida tashkil etilgan 3-6 oylik kasbiy oʻquv kurslari har bir xizmatchining muayyan mutaxassslik egasi boʻlib yetishishiga xizmat qilmoqda. Ushbu kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan askarlarga davlat namunasidagi sertifikatlar berilishi ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirib, kelajakda munosib ish oʻrniga ega boʻlishi uchun zamin yaratadi.

Sohadagi islohotlar doirasida harbiy xizmatni ado etib uyiga qaytgan yigitlarning fuqarolik hayotiga tez va muvaffaqiyatli moslashuvini taʼminlashga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Endi xususiy sektorda mehnat faoliyatini boshlash yoki yangi kasb egallash istagida boʻlgan sobiq harbiy xizmatchilarning kasbiy va qayta tayyorlash xarajatlari Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan vaucher asosida qoplab beriladi. Kezi kelganda aytish kerak, ayni imtiyoz va imkoniyatlar armiya yoshiga yetgan yigitlarni harbiy xizmatga qiziqishlarini oshirib yubordi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati taʼlim, bandlik, tadbirkorlik va harbiy sohalarni oʻzaro uygʻunlashtirgan holda amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, bugun armiyada xizmat qilayotgan yigitlar

qiyatga erishib boʻlmaydi. Shu bois, milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning jismoniy-jangovor tayyorgarligi bilan birga intellektual salohiyati, boshqacha aytganda, zamonaviy bilim va koʻnikmalari, shuningdek, kitobxonligi ham muhim mezonlardan biri sifatida koʻrilmoqda.

Tizimda kitobxonlikni keng targʻib qilish, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar tashkil etish, harbiy xizmatchilarning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish va ularni mutolaaga jalb etishga alohida eʼtibor berilmoqda. Harbiy tuzilmalardagi ziyo kunningan kitob fondi boyitilib, posbonlar kunningan istalgan vaqtda mutolaa qilishi uchun keng shart-sharoitlar muhayyo etilayotir. Joriy yil yakunigacha yurtimizdagi barcha harbiy qism va muassasalarni bir million nusxadagi badiiy adabiyotlar bilan taʼminlash belgilangan.

— Kutubxonamiz fondi boyib, unda saqlanayotgan elektron adabiyotlar soni koʻpayib borayotgani quvonarli, — deydi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Serjantlar tayyorlash oliy maktabi kutubxonachisi Guljahon Musurmonova. — Harbiyning, u xoh askar, serjant, xoh ofitser boʻlsin, badiiy va sohaga doir kitoblarni oʻqishi uning xizmatdagi faoliyatida oʻz ijobiy natijasini beradi deb oʻylayman. Shu maʼnoda, armiyada bu borada qilinayotgan ishlar oʻz samarasini bera boshladi. Kitobxon Vatan himoyachilari safi kengaymoqda.

Maʼlum qilishlaricha, joriy yildan boshlab har yili Qurolli Kuchlarning barcha toifadagi harbiy xizmatchilari oʻrtasida toʻrt bosqichli “Maʼnaviyat qalqoni” respublika kitobxonlik tanlovi oʻtkazilishi rejalashtirildi.

— Tanlovning birinchi bosqichi harbiy qism va oliy harbiy taʼlim muassasalarida, ikkinchi bosqichi harbiy okrug, birlashma va qoʻshilmalarda, uchinchi bosqichi Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarda oʻtkaziladi, — deydi mudofaa vaziri maslahatchisi Olimjon Oʻsarov. — Yakunda esa saralash bosqichlari gʻoliblari oʻzaro bellashadi. Tanlovning toʻrt gʻolibi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qoʻmondoni — Prezidentimiz bosh sovrini — zamonaviy elektromobil bilan taqdirlanadi. Sovrinli oʻrinlarni egallagan harbiy xizmatchilarga pul mukofoti va diplomlar topshiriladi.

“Maʼnaviyat qalqoni” tanlovining bunday keng qamrovda tashkil etilayotgani harbiy xizmatchilar oʻrtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, maʼnaviy dunyoqarashini boyitish va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar izchil davom etayotganidan dalolat beradi. Aytish lozim, harbiy xizmatchining jangovar tayyorgarligi qanchalik muhim boʻlsa, uning maʼnaviy-ruhiy barqarorligi, mustaqil fikrlashi va bilim saviyasi ham shunchalik ahamiyatlidir.

Kitobxonlik haqida gap ketganda, joriy yil 22-may kuni davlatimiz rahbari Oʻzbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish boʻyicha umummilliy harakarga start bergani haqida aytmasak boʻlmas. Boshlangan “Milliy kitobxonlik harakati” dasturining umumiy yillik mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etishi, mazkur tadbirning final bosqichi Prezident darajasida oʻtkazilishi, bosh sovrin sohibi 50 ming dollar bilan taqdirlanishining oʻzi mazkur harakat nufuzi nechogʻliq yuqoriligidan darak beradi. Ochigʻi, bunaqasi hali boʻlmagan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan bu boradagi keng qamrovli ishlar yoshlarni, jumladan, Qurolli Kuchlar tizimi xizmatchilarini kitob mutolaasi, ilimga chorlashda yuksak samaralar berishi shubhasiz.

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyyati” DM	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul. Bosmaxona telefonı: (71) 233-11-07.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-946. 29323 nusxada bosildi. 09232 nusxada bosilgan. Qogʻoz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.	Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Roʻziyev Manzilmiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz koʻchasi, 85-uy
MUASSIS: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Qabulxona: (71) 233-56-33 Eʼlonlar boʻlimi: (71) 233-70-98	E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05	Devonxona va ishonch telefonı: (71) 233-56-60	“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.